


ISSN 2181-7324



**O'ZBEKİSTON  
MİLLİY  
UNİVERSİTETİ**

---

**XABARLARI**

**TABIİY FANLAR  
YO'NALISHI**

**ВЕСТНИК НУУЗ**

**ACTA NUUz**



# O'zMU XABARLARI

## БЕСТНИК НУУЗ

### ACTA NUUZ

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

JURNAL  
1997 YILDAN  
CHIQA  
BOSHLAGAN

2025

3/1

Tabiiy fanlar  
turkumi

Bosh muharrir:

**MADJIDOV I.U.** – t.f.d., professor

Bosh muharrir o'rinosi:

**ERGASHOV Y.S.** – f-m f.d., professor

Tahrir hay'ati:

**Sabirov R.Z.** – b.f.d., akademik

**Jabbarov Z.A.** – b.f.d., prof.

**Raximova T.U.** – b.f.d., prof.

**Boboyev S.G.** – b.f.d., prof.

**Jobborov B.T.** – b.f.d., dots.

**Safarov K.S.** – b.f.d., prof

**Cezary Kabala.** – b.f.d., prof.

**Qodirova Sh.A.** – k.f.d., prof.

**Smanova Z.A.** – k.f.d., prof.

**Xoliqov A.J.** – k.f.d., prof.

**Xaitboyev A.X.** – k.f.d., prof.

**Mahkamov M.A.** – k.f.d., prof.

**Gulzeinep U. Begimova** – k.f.d., prof

**Musaxanov M.** – f-m.f.d., prof. akademik

**Otajonov Sh.** – f-m.f.d., prof.

**Tursunmetov K.A.** – f-m.f.d., prof.

**Nuritdinov S.N.** – f-m.f.d., prof.

**Polvonov S.R.** – f-m.f.d., prof.

**Xikmatov F.** – g.f.d., prof

**Berdiyorov G. R.** - Senior Scientist, Energy Center, Qatar

**Sabitova N.I.** – g.f.d., prof.

**Tojiyeva Z.N.** – g.f.d., prof.

**Umarov A.Z.** – g.-m.f.n., prof.

**Ishbayev X.Dj.** – g.-m.f.d., prof.

**Xoroshev A.V.** – g.f.d., prof.

Mas'ul kotib: **PARDAYEV Z.A.**

**TOSHKENT – 2025**

## MUNDARIJA

## Biologiya

<b>Abdullayeva M., Koyyash R., Inoyatova F., Abdullayeva M., Matchanov A.</b> O'tkir yog'li gepatozda metabolik jarayonlar buzilishlarini korreksiyalashda supramolekulyar kompleks birikma ta'sirini aniqlash.....	5
<b>Abdushukurova K., Alimuhammedova Z., Eshonova X.</b> Dorivor qoqio't ( <i>Taraxacum officinalis wigg</i> )da meloidogyne avlod ildiz nematodalarini va ularning zarari.....	9
<b>Аззамова III., Мавлоний М.</b> Биоразнообразие дрожжей природных ниш Ферганской долины.....	13
<b>Artikova H., Usmonova G.</b> Buxoro viloyati Romitan tumani tuproqlarining mikrobiologik faolligi va ularning tuproq unumdarligiga ta'siri.....	16
<b>Axmedova S., Xolbekov B., Muxammadiyev O.</b> Biologik-gigiyenik tadqiqotlar tuproqni barqaror boshqarish hamda aholi salomatligini yaxshilash yo'llari .....	19
<b>Boymurodov X., Aliev B., Egamkulov A., Xurozov S., Jumaboyev B., Boymurodov S.</b> Kanallar biotoplarida gidrobiontlar tarqalish zichligining qiyosiy tahlili .....	22
<b>Dadayev S., Paluaniyazova D.</b> Qoraqalpog'istonda qo'ylar nematodalarining sistematik holati va ularning tarqalishi ....	25
<b>Jienbayev B.</b> Iqlimning issiq sharoitida o'tadigan sportning avto rally turida sportchilarning musobaqadan keyingi holati .....	29
<b>Zokirov X., Zayirova D.</b> Har xil me'yordagi azotli o'g'itlarning tuproq tarkibidagi nitratli azot va ingichka tolali paxta hosiliga ta'siri .....	33
<b>Ильясова Г.</b> Оценка физического развития подростков проживающих в Республике Узбекистан.....	36
<b>Iskandarova U., Ergashev R., Qosimov D.</b> Bakteriyalarning fitopatogen zamburug'larga nisbatan antifungal faolligi ...	39
<b>Karshibaev J., Abduxoliqova F., Aliyeva D.</b> <i>Senna mill.</i> turkumining ayrim turlarini Sirdaryo viloyati tuproq-iqlim sharoitida introduksiya qilish.....	42
<b>Keldiyarova G., Xusanova M., Sharifmurodov K., Eshboyeva G.</b> Sanoat korxonalarini zararli birikmalar manbalarida inventarizasiya olib borish va chiqindilar rekuperasiyasini tashkil etish .....	46
<b>Киргизова Х.</b> Актуальные проблемы ревматологических заболеваний.....	50
<b>Kuchkarova L., Berdiyorova S.</b> Autoimmun gipoteriozning ingichka ichak fermentlari va so'rilihiga ta'siri .....	53
<b>Qayumov Y., Nazirov B., Chamanoy A.</b> Oltiariqsoy va Janubiy Farg'ona kanali irmoqlarida tarqalgan Kushakevich yalangbalig'i – Iskandaria Kuschakewitschi (Herzenstein, 1890)ning morfobiologik ko'rsatkichlarining qiyosiy tahlili ...	57
<b>Qurbanov M., Mamadiyorov F.</b> Qashqadaryo konusoyi degradatsiyaga uchragan tuproqlarning evolyutsiyasi va unumdarlik indikatorlari .....	60
<b>Qo'chqorov A., Bozorboeva Sh.</b> Toshkent vohasida yarimqattiqqanotlilar turkumining turlar tarkibi .....	64
<b>Mardonov Sh., Mustafoyev I.</b> Bobotog' milliy tabiat bog'ining qorakuya zamburug'lari .....	68
<b>Muxammadiyev J., Mudarisova R., Soatova X., Sharapova D.</b> Qurg'oqchil hududlarda chuchuk suv resurslaridan samarali foydalananish (O'zbekiston misoldida).....	72
<b>Muxamamedov I., Muminov A., Muxamadjonov S., Yo'ldoshev S., Abduvaxopova M., Jalilov M.</b> Og'iz bo'shlig'ini parvarish qilishda o'simlik ekstraktlarining antibakterial xususiyatlari ko'ra o'rganish.....	75
<b>Nabiyeva F., Dushanova G., Kudratova Z., Isomadinova L.</b> <i>Saccharomyces cerevisiae</i> zamburug'idan biologik faol polipeptidi ajratish va aminokislotalar tarkibini o'rganish.....	78
<b>Omonova N., Bobonazarov G'.</b> Tovuqlar mahsuldarligiga <i>Dermanyssus Gallinae</i> ( <i>Dermanyssus</i> ) kanasining zararini o'rganish .....	82
<b>Ramazon B.</b> Tuproqlar tarkibidagi mkoorganizmlarning tuproq ekologik holati va iqtisodiy samaradorligiga ta'siri .....	85
<b>Raximov Sh., Satipov G.</b> Kuzgi bug'doy navlarini hosil elementlarining shakllanishiga ekologik omillarning ta'siri (Xorazm viloyati sharoitida) .....	89
<b>Raxmatullayev A., Boymurodov X., Pardayev Y., Xafizova M.</b> Zarafshon vodiysi quiyi qismi agrosyenozlarda yomg'ir chuvalchangi <i>Aporrectodea caliginosa caliginosa</i> turining tarqalishiga tuproq muhit omillarning ta'siri .....	92
<b>Rustamov A., Anorbaev A.</b> Homoptera turkum vakillari sonini boshqarishda parazit entomofag turlarining o'rni va ularni samaradorligini aniqlash.....	95
<b>Turdialiyeva X., Bavbekov O'., Rustamov J., Narzullayeva M.</b> <i>Azolla caroliniana</i> willd ni introduksiya sharoitida yalpi ko'paytirish .....	98
<b>Tursunov M., Turaqulova m., Kozimov B.</b> G'o'zaning F L duragaylarida hosil elementlarining irlsylanishi .....	101
<b>Usmonova G., Artikova H.</b> Romitan tumani tuproqlarining tarkibi va uning tuproq unumdarligiga ta'siri .....	104
<b>Xolbekov B., Axmedova S., Keldibekova G.</b> Janubiy chegara mintaqalarda tuproq tarkibining aholi salomatligiga ta'siri, biologik va gigiyenik aspektlar .....	107
<b>Xosilova Z.</b> Nitrat va nitritlarning organizmdagi fiziologik jarayonlarga ta'siri(Adabiyotlar tahlili) .....	110
<b>Shavkatjonova M., Abdirasulov F., Jalov X., Pardaboyev S., Meliyeva M.</b> Zomin davlat qo'riqxonasi <i>Bryophyta</i> bo'limining tur tarkibi .....	114
<b>Eshmuroidova N.</b> Sudoche ko'llar tizimi yetakchi diatom suvo'tlarining rivojlanish dinamikasi .....	118
<b>Yuldashev G'., Sotiboldiyeva G., Abdusakimova X., Muxammadjonova M.</b> Farg'ona vodiysi sug'oriladigan yerlarida agroi irrigatsion qatlamlarning shakllanishi va uning xossalari .....	122
<b>Yulchiyeva M., Dusmurotova F.</b> Qalin bargli badan ( <i>Bergenia crassifolia</i> (L.) Fritsch) ning Toshkent sharoitida ildizpoyalari orqali ko'payishi va barg mikroskopiyasi .....	126
<b>Yarboboyev T., Qosimova K.</b> Kaliy o'g'itlari ishlab chiqarishda ekologik monitoring o'tkazish texnologiyasi .....	131
<b>Geografiya, geografiya</b>	
<b>Abdazov J.</b> Jizzax shahri demografik rivojlanishining ayrim masalalari .....	135
<b>Абдуллаев А., Соатов Н.</b> Malguzar tog'larining kichik intruziyalari va dayklarining ma'dandorligi .....	139
<b>Boymurodova X.</b> Rekreatsiya – turizm resurslari va ularni tadqiq etishda masofali metodlarni qo'llash masalalari.....	142

<b>Ежков Ю., Холиёров А.</b> Генетические особенности золота самородного в редкометальных апогранитах и пегматитах Лолабулак – Баянкаринской редкометальной зоны.....	145
<b>Закиров М.</b> Особенности такырных подземные воды Южной части Каракалпакского .....	149
<b>Komilova N., Abdinazarova X.</b> Toshkent shahri sanoatining tarmoq va hududiy xususiyatlari .....	153
<b>Kuvondikov R., Egamberdiyev A.</b> Chorvachilikni xaritaga olishni ayrim nazariy va amaliy masalalari .....	156
<b>Qoriyev M., Rahmonova N., Halimjonov A.</b> Namangan viloyatining so'nggi 30 yildagi yog'in miqdoridagi o'zgarishlar .....	160
<b>Muhamadaliyev R., Niziyazov A.</b> O'zbekiston avtomobil yo'llarining shakllanishi va rivojlanishi .....	164
<b>Мансуров М., Хусанов С.</b> Стратиграфия верхнеюрской карбонатной формации Юго-Западных отрогов Гиссарского хребта.....	168
<b>Matchanova A., Shomurodov M.</b> Xorazm viloyatida etnografik turizmni rivojlantirishning geografik xususiyatlari....	171
<b>Рахматуллаева Ш., Туляганова Н.</b> Геодинамическая обстановка формирования Марджанбулакского рудного поля .....	174
<b>Сайдова М., Таджибаева Ф., Абдусаматова Д.</b> Оценка полезных ископаемых и изучение песчано-гравийной смеси четвертичных отложений «Янги-базар» .....	178
<b>Sultanov P., Meliboyev B., Xusanbayev D., To'xtasinov A.</b> Paleogen davri So'zoq yotqiziqlarining litologik-fatsial sharoitlarining raqamli xaritasi (Farg'ona botig'i va Toshkentoldi hududlari misolida) .....	181
<b>Tadjibayeva F., Saidova M., Abdusamatova D.</b> Chotqol-Qurama, Turkiston-Nurota va Zirabuloq-Ziyovuddin tog'larida tabiiy dekorativ (pardozbob) toshlarni o'rganish .....	184
<b>Temirov Z.</b> Go'daklar o'limi va unga ta'sir etuvchi geografik omillar (Andijon viloyati misolida) .....	187
<b>Tojiyeva Z., Omanova K.</b> O'zbekiston Respublikasi qishloq aholisida demografik o'tish davri .....	192
<b>To'xtasinov A., Xusanbaev D., Amirqulov J.</b> "Geofizikaviy tadqiqot usullari" fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash .....	196
<b>O'tamurodov E.</b> Zirabuloq granitoidli intruzivi monchikit daykasining moddiy tarkibi va ma'dandorligi (Zirabuloq tog'lari) .....	201
<b>Xolboyev G., Egamberdiyev X., Shermuxamedov., Eshmirzayev D.</b> Iqlim o'zgarishi sharoitida hududlarining issiqlik ta'monini baholash .....	205
<b>Xoliyorov A., Ejkov Y.</b> Mang'it granit-pegmatit konining noyob metall ma'danlashuv istiqbollarini baholash mezonlari, geokimyosi va mineralogiyasi .....	209
<b>Холмирзаев М., Мирфайзиева Ф., Атакулова М.</b> Оценки состояния загрязнения пород и подземных вод углеводородных загрязнителями.....	213
<b>Хусомиддинова А., Зиёмов Б.</b> Оценка сейсмической опасности Ташкентской области на основе современных информационных технологий.....	216
<b>Хусанов С., Мансуров М., Алимов М.</b> Палеонтологические исследования верхнеюрских карбонатных формаций Южного и Западного Узбекистана.....	220
<b>Sherxolov O., Musayev B., Iskandarov O., Umarova Sh.</b> Navoiy viloyati mehnat resurslari va ularning kelajakdagi o'zgarishi .....	224
<b>Ergasheva Y., Ermaxametova E., Amangeldiyeva U.</b> 3d-raqamli xaritalarda joyni o'rganish va tadqiq qilish .....	228
<b>Ernazarov Sh., Pardayev N.</b> Ta'lim tizimini geografik tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari.....	231
<b>Eshquvvatova B., Xurramova N.</b> O'rta Zarafshon havzasidagi landshaftlar o'zgarishini monitoring qilish bosqichlari	234
<b>Eshmurodov O., Raximov K., Begijonov I., Komilov T., Yermenev S.</b> To'lqin dinamikasi usuli bilan burg'ilash quvurlarini siqilib qolishini oldini olish nazariyasini asoslash.....	237
<b>Юнусова О., Ташмухамедов Б., Адилов Б.</b> Развития и вероятные нефтегазоносные ярусы региона .....	241
<b>Yusupov U., Raximova N., Bekchanov J.</b> Olmaliq ma'dan maydoni mintaqaviy va mahaliy tektonik yer yoriqlari zonalarda ma'danlashuv .....	244
<b>Ядгаров И.</b> 3d-моделирование урановых месторождений в государственном предприятии «Навоийурган» .....	248
<b>Kimyo</b>	
<b>Ablakulov L., Ikramov A., Ziyadullayev O., Abduraxmanova S.</b> Grinyar-iotsich reagenti asosida atsetilen diollari sintezi.....	251
<b>Asrorova Z., Yaxshiyeva Z., Jurayeva M., Saidmirzayeva D.</b> 2-Amino-5-etyl-1,3,4-tiadiazolning termokimyoviy tahlili .....	255
<b>Buronov A., Nasrullaev A., Lifei N., Bozorov K., Aisa H.</b> (E)-5-(3,4-dimetoksibenziliden)-3-metil-6,7-digidropirrolo[1,2-a]tieno[3,2-d]pirimidin-9(5h)-on sintezi .....	258
<b>G'aybullayev Sh., Zohidov Q., Trobov X., Bozorov X.</b> Protein kinaza oqsili va xinazolin hosilalarining o'zaro ta'sirlashuvlarini molekulyar doking usulida o'rganish .....	262
<b>Jo'rayev R., Uroqova M.</b> Infracizil spektroskopiyada pyrogalloolning molekulyar tebranish tahlili .....	266
<b>Каланова М., Хашимова З., Кахарова К., Салахутдинова М., Амонова Д., Тураев А., Мухторов А.</b> Изучение цитотоксической активности полисахаридов в культуре клеток .....	270
<b>Mamadoliev I., Sharipova O.</b> Adsorbentlar yaratish uchun navbahor bentonitining tarkibi va strukturaviy xususiyatlarini o'rganish .....	273
<b>Mamedova M., Smanova Z., Abdullayeva M.</b> Toshkent viloyati Olmaliq KMK hududi tuprog'i tarkibidagi og'ir metallarni hamda Cr, Pb ionlarini mass-spektrometrik usullarda aniqlash va monitoring qilish .....	277
<b>Matchanov A., Ochilov Sh., Yusufov M., Toshmatov Z., Otavaliyev I., Abdushukurov A.</b> 2,2'-(5-ftor-2,4-dioksopirimidin-1,3(2h,4h)-diil)bis (n-(3-(triformetil) fenil) asetamidning sintezi va biologik faolligi .....	280
<b>Mirzaraximov A., Komilov K., Muhammedov G'.</b> Modifikatsiyalangan fosfogips-interpolimer kompleks kompozitlarini olish va xossalalarini o'rganish .....	284

Nazarova M., Boqiyev Q., Sayfiyev M., Ziyayev D., Ixtiyorova G. Xitozan bilan modifikatsiyalangan uglerod pastali elektrod bilan qo'rg'oshin miqdorini aniqlash .....	288
Ochilov Sh., Yusufov M., Nurboboyev Z., Abdumalikov A., Otavaliyev I., Abdushukurov A., Tojimuhammedov H., Matchanov A. 5-Ftoruratsilning 3-ftor 4-nitro n-xloratsetil anilin asosidagi yangi hosilasini sintez qilish va biologik faolligini o'rganish.....	292
Raxmatjanov O., Mirzaqulov X., Yorboboyev R., Arifdjanova K. Kushkanatog' koni tabiiy aralash tuzlari tarkibini kimyoviy va fizik-kimyoviy tahlil qilish .....	295
Raxmonova X., Adizova Sh., Sultonov Sh. Sorbentlarning sorbsion xossasiga faollanuvchi gillarning ranglari va o'lehamlarini ta'siri.....	299
Ruziqulova N., Vapoyev H., Qodirov S. Atsetaldegid hosil bo'lish unumiga ikki komponentli katalizatorlar ta'siri .....	302
Saidov I., Tojiboyeva M., Tursunova G., Trobov X. Monoion ko'rinishidagi kationit krs-2x2 ning tarkibi va xossalarni aniqlash.....	307
Xazratqulova S., Muxamadiyev M. Tabiiy oksikislotalarini povidon yod asosida polimer kompleksini sintezi .....	311
Xandamova D., Nurullayev Sh., Eshmetov R., Mamajanov M., Ibragimov T. "Modifikatsiyalangan organobentonitlarning temir ionlarini adsorbsiyalash qobiliyatini baholash: Lengmuyer modeli samaradorligi va izotermalarining taqqosiy tahlili" .....	314
<b>Хожабаева Г., Торамбетов Б., Карлыбаев И., Киньшакова Е., Кадирова Ш.</b> Синтез и изучение структуры шестикоординационного комплекса нитрата кадмия (II) с 2-амино-5-пропилтио-1,3,4-тиадиазолом .....	318
<b>Xudoyberganov O.</b> Rux atsetati hamda qahrabo kislotasining natriyli tuzi bilan kompleksi sintezi va strukturasi .....	323
<b>Хужамбердиев Ш.</b> Исследование процесса получения полифосфатов натрия из частично очищенной экстракционной фосфорной кислоты.....	327
<b>Choriyev A., Abdullajanova N., Bo'ronova S., Razzoqova M.</b> Tris (4-xlorofenil) 2,2,2"-((5-((2-(4-xlorofenoksi)-2-oxsoetoksi) karbonil) benzol-1,2,3-triil) tris(oksi)) triatsetat sintezi.....	330
<b>Shavkatova D.</b> Yangilangan oltingugurtli betonning korroziyaga chidamliligi.....	333
<b>Шарипов С., Санакулов К., Мухиддинов Б.</b> Важность применения окислительного обжига для окисления упорных углеродсодержащих сульфидных руд .....	337
<b>Egamberdiyev N., Ibodullayeva M., Fayzullayev N.</b> Dimetilefiring katalitik sintezi .....	340
<b>Ergashev M., Rajabov Sh., Mirzaqulov X.</b> Soda korxonalarining shlamli chiqindilarini nitrat kislotali qayta ishlash jarayonidagi azot kislotali ekstraklarning realogik xossalari .....	343
<b>Yuldasheva N., Komilov B., Eshbakova K., Sulaymonov Sh., Mamarasulov B.</b> Terpenoids, chemical composition of essential oil and antimicrobial activity of <i>ferula ferganensis</i> root .....	346
<b>Yakhshinorov K. Alimov A., Mamatov U., Berdimurodov E., Akbarov Kh., Mamatov J.</b> Synthesis of carbon dots based on chitosan and urea .....	350
<b>Fizika</b>	
Axmedov E., Shermuxammedov A. Samariy ( <i>sm</i> ) va Kobalt ( <i>co</i> ) sistemasi intermetallik birikmalarining solishtirma elektr qarshilagini temperaturaga bog'liqligini o'rganish.....	353
Vildanov R., Malisheva M., Turotov F. <i>EuGag</i> granatlarida faradey effektini o'rganish .....	357
Dadamirzayev M., Erkaboyev U., Rahimov R., Temirov Q. Tor zonalı kvant o'raning landau sathlariga magnit maydon ta'siri .....	360
Dusiyorov N., Mardonova Sh., Berdinazarov Q., Normuradov N., Haqberdiyev E. Pei/Pet aralashmasining iq – spektroskopiya tahlili: polimer o'zarlo ta'sirlari va tarkibiy o'zgarishlar .....	365
Yormatov Sh., Jumabaev A., Asanov A., Mustafoyeva M. Investigating acetonitrile vibrations in protic and aprotic mixtures .....	369
Jalolova M., Ro'ziyev T. Rentgen nurlarining inson salomatligiga ijobiy va salbiy ta'siri .....	373
Косбергенов Е., Абдумуталов М. Определение скорения свободного падения с помощью кольцевого физического маятника .....	376
Maxmanov U., Aslonov B., Cho'liyev T., Tursunqulov E. C <sub>70</sub> nanostructuralari sintezi va ularning barqarorligini tadqiq qilish .....	380
Мустафоева Н., Эргашов Ё., Ташатов А., Кучаров С., Норкулова З. Исследование ширина переходного слоя двухслойной системы силицид-кремний .....	384
Negmatov U., Erkaboyev U., Sayidov N., Mirzayev J. O'zgaruvchan kuchsiz magnit maydonda kvant o'raning ruxsat etilgan zonasidagi elektronlarning energetik spektrini o'zgarishi .....	387
Omonov A. Физические характеристики диска лопсаидальных спиральных галактик .....	391
Rajabov O., Mirzayev S., Xalilov U., Yusupov M. Sovuq atmosferik plazmaning farmatsevtik oqova suvlar tarkibidagi ofloksatsin antibiotigiga ta'sirini modellashtirish .....	395
Ramazanova U., Matnazarova Sh., Axmadjanov T., Yusupov M. Plazma oksidlanishining biopolimer tuzilishiga ta'siri: atomar darajadagi simulyatsiyalar .....	399
Raxmetullaeva G., Mamayusupova M., Saidova S. Secondary neutron production in proton therapy .....	402
Holikulov U., Jumabaev A., Khudaykulov B. Exploring molecular interactions between serine and acetic acid .....	405
Elboyeva M., Axmadjanov F., Ulashev A. Vismut germanati kristallarida optik aktivlikning yorug'likning akustik to'lqinlarda bregg difraksiyasi samaradorligiga ta'siri .....	409
Ergashev S. Ekzosayyoralar tadtqiqoti GJ 3470 ning optik kuzatuvlari misoldida.....	413



**Lochinbek ABLAKULOV,**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: monokop91@gmail.com

**Abduvahob IKRAMOV,**

Toshkent kimyo texnologiya instituti professori, t.f.d

E-mail: ikramov.abduvahob@gmail.com

**Odiljon ZIYADULLAYEV,**

Favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi boshlig'ining birinchi o'rinnbosari

Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, k.f.d

**Saida ABDURAXMANOVA,**

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD

K.f.d A.Parmanov taqrizi asosida

### GRINYAR-IOTSICH REAGENTI ASOSIDA ATSETILEN DIOILLARI SINTEZI.

Annotatsiya

Grinyar reagenti asosida butadiion-2,3, pentadiion-2,4, 3-metilpentadiion-2,4, geksadiion-2,5, 1-(tiofenil-2)pentadiion-1,4 va 4,4,4-triflورو-1-(tiofenil-2)butadiion-1,3 ketonlarini alkillash reaksiyasi yordamida atsetilen diollari sintez qilindi. Mahsulot unimiga apraton erituvchilardan DEE va THF tasiri va mahsulot unimiga reaksiya davomiyligi o'rganilgan. Bunda erituvchi THF va 240 minutda sintez qilingan AD unimi yuqori chiqishi aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** Grinyar reagenti, magniy organik birikma, keton, atsetilen diollari, erituvchi, dietilefir, tetragidrofuran.

### SYNTHESIS OF ACETYLENE DIOLS BASED ON THE GRIGNARD-IOTSICH REAGENT

Annotation

Acetylene diols were synthesized by alkylation of butadiione-2,3, pentadiione-2,4, 3-methylpentadiione-2,4, hexadiione-2,5, 1-(thiophenyl-2)pentadiione-1,4 and 4,4,4-trifluoro-1-(thiophenyl-2)butadiione-1,3 ketones based on the Grignard reagent. The effect of the aprotic solvents DEE and THF on the product yield and the reaction duration on the product yield were studied. It was found that the solvent THF and the AD product synthesized in 240 minutes gave a high yield.

**Key words:** Grignard reagent, organomagnesium compound, ketone, acetylene diols, solvent, diethyl ether, tetrahydrofuran.

### СИНТЕЗ АЦЕТИЛЕНДИОЛОВ НА ОСНОВЕ РЕАКТИВА ГРИНЬЯРА-ИОЦИХА

Annotatsiya

Ацетилендиолы синтезированы с использованием реакции алкилирования бутадион-2,3, пентадион-2,4, 3-метилпентадион-2,4, гексадион-2,5, 1-(тиофенил-2)пентадион-1,4 и 4,4,4-трифтор-1-(тиофенил-2)бутадион-1,3 кетонов на основе реактива Гриньяра. Изучено влияние аprotонных растворителей ДЭЭ и ТГФ на выход продуктов, а также влияние продолжительности реакции на выход продуктов. Было установлено, что растворителем является ТГФ, а также высокий выход продукта АД, синтезированного за 240 минут.

**Ключевые слова:** Реактив Гриньяра, магнийорганическое соединение, кетон, ацетилендиолы, растворитель, диэтиловый эфир, тетрагидрофуран.

**Kirish.** Bugungi kunda jahonda kimyo sanoatiga zamonaviy texnologiyalarni kiritish orqali yangi turdag'i organik birikmalar sintez qilish, ular asosida noyob xossalarga ega polimer va plastik materiallar, erituvchilar, fungitsidlari, stimulyatorlar, antibiotiklar, garmonlar, yelim va bo'yoqlar yaratish dolzarb vazifalardan hisoblanadi [1]. Grinyar-Iotsich reaksiyasi asosida yangi atsetilen spirtlari sintezida mahsulot unumini oshirish maqsadida yuqori samara beradigan mexanizmlarni ishlab chiqish, ekologik toza, chiqindisiz resurs, tejamkor texnologiyalarni yaratish, atsetilen spirtlari va ularning tozaligi, tuzilishi va xossalalarini zamonaviy fizik-kimyoviy usullarda aniqlash, ulardan kimyoviy korroziyada ingibitorlar, biokorroziya jarayoniga qarshi biotsidlari, qatlama hoslil qiluvchi komponentlar uchun ionitlar va qishloq xo'jaligida defoliyantlar sifatida qo'llash kabi masalalar dolzarb hisoblanadi [2].

Elementorganik birikmalar kimyosi hozirgi kunda sintetik kimyoning juda tez rivojlanayotgan qismlaridan biri hisoblanadi [3]. Elementorganik birikmalarga metallorganik birikmalar (C-Me), magniyorganik birikmalar (C-Mg), bororganik birikmalar (C-B), kreminiyorganik birikmalar (C-Si), fosfororganik va mishyakorganik birikmalar (C-P, C-As), selenorganik hamda tellurorganik birikmalar (C-Se, C-Te) va hokazolar misol bo'ladi [4].

Metalorganik birikmalarni organik sintezda ko'p qo'llanilishiga sabab shuki, ular kimyoviy juda faol va turli reaksiyalarga oson kirishadi. Metalorganik birikmalarning ayrimlari selektiv reagent hisoblanadi [5].


Magniy organik birikmalarni 1900-yilda Fransuz olimi V. Grinyar kashf etgan, bunda alkil galogenidlarning suvsizlantirilgan efirdagi eritmasiga magniy metalining kukunini ta'sir ettirib, aralash magniy organik birikmalarni (Grinyar reaktiv) sintez qilgan [6]. Grinyar reaktivining alkinlar bilan birikishidan yangi barqaror birikmalar Iotsich tomonidan sintez qilingan [7]. Shundan kelib chiqqan holda, Grinyar-Iotsich usuli deb yuritilmoqda. Grinyar-Iotsich reaktividan foydalanih, ulgivedorodlar, spirtlar, ketonlar, kislotalar va boshqa birikmalar olish mumkin [8].

**Tajriba qismi.** Uch og'izli 500 ml kolbaga mexanik aralashtirgich, qaytarma sovutkich, tomizgich voronka o'rnatib, 200 ml tetradirofuran solindi va 6 g (0,25 mol) kukun holidagi magniy metali qo'shib aralashtiriladi tomizgich voronka orqali 40,5 g etilbromid qo'shiladi va sistemadagi aralashma 60 minut davomida qaynatiladi. Hosil bo'lgan mahsulot (Grinyar reaktiv) 10-15 °C harorat gacha sovitilib 30 minut davomida aralashtiriladi.


Ma'lumki, Grinyar reaktiv RMgX havo kislорodiga, namlikka sezgir va uni kavsharlangan ampulalarda absolyut erituvchida saqlanadi. Odatda Grinyar reaktiv aniq bir reaksiya uchun olinadi va aralashmadan ajratib olinmasdan ishlataladi.

Olingan Grinyar reaktiv eritmasisiga 25,5 g (0,25 mol) fenilasetilen va 120 minut davomida aralashtirilib turilgan holda tomiziladi bunda kolbadagi -5 - 0 °C harorat suyultirilgan azot orqali ushlab turiladi, va yana 120 minut davomida 0,25 mol ketonning teng hajmdagi eritmasi qo'shiladi. Reaksiya oxiriga yetkazilgach hosil bo'lgan aralashma (3×25 ml) muzli suv bilan ekstraksiya qilinadi va suyultirilgan xlorid kislatadan cho'kma erib ketguncha qo'shiladi, va natriy sulfat bilan quritilib, vakumda haydash orqali fraksiyalarga ajiratiladi.

**Reaksiya xizimzi.** Grinyar reagenti EtMgBr/THF atsetilen qatori uglevodorodlari bilan reaksiyaga kirishganda alkil tuzlarini hosil qiladi va hosil bo'lgan birikma Iotsich reagenti deb ataladi [10].



Grinyar-Iotsich usulida C<sub>2</sub>H<sub>5</sub>MgBr/THF ishtirokida atsetilen diollarini sintezi amalga oshirildi, va reaksiya sxemasi adabiyot manbalari asosida quyidagicha taklif etildi.




- |   |   |   |
|---|---|---|
| R <sub>1</sub> = Me, R <sub>3</sub> = Me, R <sub>4</sub> = H ( <b>1</b> )                                   | R <sub>1</sub> = Me, R <sub>3</sub> = Me, R <sub>4</sub> = Hx ( <b>7</b> )                                    | R <sub>1</sub> = Me, R <sub>3</sub> = Me, R <sub>4</sub> = Ph ( <b>13</b> )                                   |
| R <sub>1</sub> = Me, R <sub>2</sub> = H, R <sub>3</sub> = Me, R <sub>4</sub> = H ( <b>2</b> )               | R <sub>1</sub> = Me, R <sub>2</sub> = H, R <sub>3</sub> = Me, R <sub>4</sub> = Hx ( <b>8</b> )                | R <sub>1</sub> = Me, R <sub>2</sub> = H, R <sub>3</sub> = Me, R <sub>4</sub> = Ph ( <b>14</b> )               |
| R <sub>1</sub> =Me, R <sub>2</sub> =Me, R <sub>3</sub> =Me, R <sub>4</sub> = H ( <b>3</b> )                 | R <sub>1</sub> = Me, R <sub>2</sub> =Me, R <sub>3</sub> = Me, R <sub>4</sub> = Hx ( <b>9</b> )                | R <sub>1</sub> = Me, R <sub>2</sub> =Me, R <sub>3</sub> = Me, R <sub>4</sub> = Ph ( <b>15</b> )               |
| R <sub>1</sub> = Me, R <sub>2</sub> = 2H, R <sub>3</sub> =Me, R <sub>4</sub> = H ( <b>4</b> )               | R <sub>1</sub> = Me, R <sub>2</sub> =2H, R <sub>3</sub> =Me, R <sub>4</sub> = Hx ( <b>10</b> )                | R <sub>1</sub> = Me, R <sub>2</sub> =2H, R <sub>3</sub> =Me, R <sub>4</sub> = Ph ( <b>16</b> )                |
| R <sub>1</sub> = Th, R <sub>2</sub> = H, R <sub>3</sub> = Me, R <sub>4</sub> = H ( <b>5</b> )               | R <sub>1</sub> = Th, R <sub>2</sub> = H, R <sub>3</sub> = Me, R <sub>4</sub> = Hx ( <b>11</b> )               | R <sub>1</sub> = Th, R <sub>2</sub> = H, R <sub>3</sub> = Me, R <sub>4</sub> = Ph ( <b>17</b> )               |
| R <sub>1</sub> = Th, R <sub>2</sub> = H, R <sub>3</sub> = CF <sub>3</sub> , R <sub>4</sub> = H ( <b>6</b> ) | R <sub>1</sub> = Th, R <sub>2</sub> = H, R <sub>3</sub> = CF <sub>3</sub> , R <sub>4</sub> = Hx ( <b>12</b> ) | R <sub>1</sub> = Th, R <sub>2</sub> = H, R <sub>3</sub> = CF <sub>3</sub> , R <sub>4</sub> = Ph ( <b>18</b> ) |


**Reaksiya mexanizmi.** Dastlab jarayon boshlanishi bilan alkil qatori uglevodorodlari Grinyar reaktiv bilan ta'sirlashib o'zining molekulasiidagi harakatchan vodorodi hisobiga etilmagniybromid bilan ta'sirlashib alkilmagniybromidni hosil qiladi [12].



Reaksiyaning keyingi bosqichida alkilmagniybromid keton bilan nukleofil birikish reaksiysi orqali, ya'ni magniy bromid keton molekulasiidagi kislорodning juftlashgan elektronlariga hujum qilib oralig' birikmani hosil qiladi.



Hosil bo'lgan oralig' kompleks tuz suv bilan gidroliz qilinib tegishli atsetilen diollarini olinadi, magniy gidroksobromid esa cho'kmaga tushadi [13], [14].



**Olingan natijalar tahlili.** Griniyar reaktiv yordamida turli xil tabiatga ega AD ni sintez qilish naqsadida, butadion-2,3, pentadion-2,4, 3-metilpentadion-2,4, geksadion-2,5, 1-(tiofenil-2)pentadion-1,4 va 4,4,4-triftoro-1-(tiofenil-2)butadion-1,3 kabi ikkita funksional guruh tutgan ketonlarga, atsetilen qatori uglevodorodlaridan atsetilen, oktin-1 va fenilasetilen ishtirokida alkinillash reaksiysi yordamida tegishli atsetilen diollarini sintez qilindi.

Shundan, sintez qilingan AD (**1**), 3,4-dimetilgeksadiin-1,5-diol-3,4 81,3%, (**2**), 3,5-dimetilgeptadiin-1,6-diol-3,5 80,7%, (**3**), 3,4,5-trimetilgeptadiin-1,6-diol-3,5 80,2%, (**4**), 3,6-diimetiloiktadiin-1,7-diol-3,6 79,8%, (**5**), 3-metil-5-(tiofenil-2) geptadiin-1,6-diol-3,5 79,2%, (**6**), 3-(tiofenil-2)-5-(triforometil)geptadiin-1,6-diol-3,5 78%, (**7**), 9,10-dimetiloiktadekadiin-7,11-diol-9,10 78,5%, (**8**), 9,11-dimetilnonadekadiin-7,12-diol-9,11 79%, (**9**), 9,10,11-trimetilnonadekadiin-7,12-diol-9,11 78,4%, (**10**), 9,12-dimetilikozadiin-7,13-diol-9,12 77,6%, (**11**), 9-metil-11-(tiofenil-2)nonadekadiin-7,12-diol-9,11 77,1%, (**12**), 9-(tiofenil-2)-11-(triforometil)nonadekadiin-7,12-diol-9,11 78,6%, (**13**), 3,4-dimetilgeksadiin-1,5-diol-3,4 76,7%, (**14**), 3,5-dimetil-1,7-difenilgeptadiin-1,6-diol-3,5 78,2%, (**15**), 3,4,5-trimetil-1,7-difenilgeptadiin-1,6-diol-3,5 79%, (**16**), 3,6-dimetil-1,8-difeniloktadiin-1,7-diol-3,6 78%, (**17**), 3-metil-1,7-difenil-5-(tiofenil-2) geptadiin-1,6-diol-3,5 76%, (**18**), 1,7-difenil-3-(tiofenil-2)-5-(triforometil)geptadiin-1,6-diol-3,5 75%, unum bilan sintez qilindi.

Grinyar-Iotsich reaktiv asosida AD sintez qilish jarayoni, -5 - 0 °C harorat va 2-6 soat vaqt oralig'ida turli erituvchilarida, yani DEE va THF eritmalarida olib borildi. Boshlang'ich mahsulotlar ekvimolyar nisbatda olindi. Atsetilen diollarining umumiyu qo'shiqchi uchun yuqori qaynash xaroratiga ega erituvchilar tanlab olindi.

1-Jadval

**AD unumiga erituvchilar tabiatи va reaksiya davomiyligi ta'siri  
(harorat -5 - 0 °C)**

AD	Mahsulot umimi %			Erituvchi DEE, va reaksiya davomiyligi			Erituvchi THF, va reaksiya davomiyligi		
	2 soat	4 soat	6 soat	2 soat	4 soat	6 soat	2 soat	4 soat	6 soat

1	54,5	66,6	52,7	75,1	81,3	67
2	52,2	66	56,2	74	80,7	69,3
3	50,3	64	55	73,4	80,2	69
4	56,4	68	45,6	69	79,8	64,8
5	55,1	65	43,2	68,8	79,2	62,5
6	53,6	62	44,8	68	78	63
7	62	71,7	53,5	66,5	78,5	60,8
8	59,3	67,1	47	71,7	79	68
9	52	72,3	42,3	70	78,4	62,7
10	66,2	70,5	59	67,4	77,6	64,1
11	58	70	42,7	66,5	77,1	58
12	55	66	47	70	78,6	65,4
13	51,4	71	55	70,3	76,7	61
14	57	70,8	50,5	69,8	78,2	61,5
15	56,1	67	47	71,3	79	63,4
16	58	70,8	48	69	78	61
17	52,6	67,7	51	70,4	76	64
18	58	65	52	68	75	62

Jadvaldan ko'rinib turibdiki jarayon 2 soat davomida apraton erituvchi DEE va THF da olib borilganda to'liq reaksiyaga kirisha olmagan ketonlar kondensatsiyaga uchrab qolishi yoki yenollanishi natijasida barqaror oraliq va qo'shimcha birikmalarini hisobiga mahsulot umimi kamayishi kuzatiladi.

Grinyar-Iotsich reaksiyasi 6 soat davomida olib borilganda tanlangan erituvchilarida bir xil qonuniyat asosida mahsulot unumining kamayishi kuzatildi. Bunda jarayonda hosil bo'lgan atsetilen diollari reaksiyaga kirishmagan ketonlar bilan o'zarot sirlashib atsetallar hosil qilishi, atsetilen spirtlari qisman polimerlanishi yoki eritmadiagi Mg(OH)Br bilan ta'sirlashib alkogolyatlarga aylanishi natijasida mahsulot umumi kamayadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra Grinyar-Iotsich usulida atsetilen diollari olishda THF eritmasida, reaksiya davomiyligini 4 soatda olib borilganda boshlang'ich moddalar to'liq reaksiyaga kirishib, eng optimal vaqt qilib belgilandi.

Bundan tashqari atsetilen diollari unimiga erituvchilar tabiatini ham o'rganildi, jadvaldan ko'rinib turibdiki, reaksiya DEE va THF eritituvchilarida olib borilgan, jarayon THF eritmasida o'tkazilganda AD maksimum unim bilan chiqganligi kuzatildi. Buning sababi THF eritmasidagi alkil galogenidiga magniy metali ta'sir ettirilganda reaksiya juda tez borishi va ko'p miqdorda Grinyar reaktivining hosil bo'lishi aniqlandi, va erituvchi THF kuchli asos xossasiga ega bo'lganligi uchun Grinyar reaktivining kation qismini, ya'ni kislota qismini solvatlaydi. Bundan tashqari ushbu erituvchilar nafaqat erituvchi, balki katalizator vazifasini ham bir vaqtida bajarib beradi. Katalitik reaksiyalarda asosliligi yuqori bo'lgan katalizatorlarning katalitik faolligi ham yuqori bo'lishi, bu esa mahsulot unumining ortishiga olib keladi.

DEE erituvchida atsetilen diollari unimi past chiqishiga sabab DEE eritmasida alkil galogenidiga magniy metali ta'sir ettirilganda reaksiya juda sekin ketishi aniqlandi, DEE dagi kislород atomi umumlashmagan elektron jufti hisobiga kuchsiz asos xossasiga ega, bu esa mahsulot unumining pasayishiga olib keldi.

Grinyar-Iotsich reaksiyasi aproton erituvchilar hisoblangan DEE va THF eritmalarida olib borilganda, dielektrik doimiyligi va dipol momenti yuqori bo'lgan THF da mahsulot unumi yuqori chiqishi isbotlandi.

Metall organik birikmalar asosida AD sintez qilinganda, boshlang'ich mahsulotlarning yani ketonlar molekulyar massasi, tuzilishi va radikallarning tabiatini ham mahsulot unumiga ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki ketonlar molekulyar massasining ortib borishi yoki karbonil guruh atrofida hajmdor radikallarning ko'payishi jarayonlarning borishini qiyinlashtiradi.

Karbonil guruhi uglerodi atrofida joylashgan radikallarning tabiatini va radikallarning fazoviy ta'sir etish xossasiga ko'ra ketonlarning Grinyar-Iotsich reaksiyasiga kirishishini quyidagi - 4,4,4-trifluro-1-(tiofenil-2)-butadion-1,3< 1-(tiofenil-2)-pentadion-1,4 < 3-metilpentadion-2,4, <geksadion-2,5< pentadion-2,4< butadion-2,3< qatori bo'yicha oshib borishi aniqlandi.

Grinyar-Iotsich usulida AD sintez qilish jarayoni boshlang'ich mahsulotlar ekvimolyar nisbatda, THF eritmasida, -5 – 0 °C haroratda, 4 soat davomida olib borilgan holat eng muqobil sharoit qilib olindi.

**Xulosa.** Magniy organik birikma yordamida metilpropilketon, butadion-2,3, pentadion-2,4, geksadion-2,5, 3-metilpentadion-2,4, 1-(tiofenil-2)-pentadion-1,4 va 4,4,4-trifluro-1-(tiofenil-2)-butadion-1,3 ning atsetilen, oktin-1 va fenilatsetilen bilan reaksiyasi amalga oshirilib tegishli AD sintez qilindi. Reaksiya unumiga DEE va TGF erituvchilar ta'sir o'rganildi va jarayon THF eritmasida o'tkazilganda AD yuqori unum bilan hosil bo'lGANI aniqlandi. Reaksiya 4 soatda -5 - 0 °C haroratda THF da olib borilganda AD unimi yuqori chiqishi kuzatildi.

#### ADABIYOTLAR

- Ахмедов Қ.Н., Йўлдошев Ҳ.Й., Ахмедов У.Ч.. Органик кимё усуулари. I қисм, // Ўкув қўлланма. Т. Университет, 2013, 288 бет.
- Medvedeva A.S., Demina M.M., Novopashin P.S., Sarapulova G.I., Afonin A.V. Prop-2-yn-1-als and 1-phenylprop-2-yn-1-one in the chalcogen Baylis-Hillman reaction // Journal of Organometallic Chemistry, 2002, № 3. – P. 110-111.
- Reich Melanie. Addition of a lithium acetylide to an aldehyde; 1-(2-pentyn-4-ol)-cyclopent-2-en-1-ol // Chemical Spider Synthetic Pages. 2001. Volume 24. pp. 137.
- Midland M.M., McLoughlin J.I., Werley R.T. Preparation and Use of Lithium Acetylides: 1-Methyl-2-ethynyl-endo3,3-dimethyl-2-norbornanol // Journal Organic Synthesis. 1999. Volume 8. № 14. pp. 391.
- Weil T.F., Schreiner P.R. Organo catalytic alkynylation of aldehydes and ketones under phase-transfer catalytic conditions // European Journal of Organic Chemistry, V.24(237). 2005 pp. 2213-2219.
- Yamamoto H., Oshima K. Main Group Metals in Organic Synthesis. Wiley-VCh. – Weinheim, 2004. p. 4012.
- Midland M.M., Alfonso T.R., John R.C. Synthesis of alcohols using Grignard reagents // Journal Organic Chemistry. 1998. № 63(1). pp. 21-26.
- Zhang R., Xia Y., Yan Y., Ouyang L. Cu-Catalyzed, Mn-mediated propargylation and allenylation of aldehydes with propargyl bromides // BMC Chemistry, 2022, Volume 16, 14. pp. 1-9.
- Biao Jiang and Yu Gui Si. Alkynylation of carbonyl compounds with terminal acetylenes promoted by ZnCl2 and Et3N: Simple, mild and efficient preparation of propargylic alcohols // Tetrahedron Letters, 2022, Volume 43, pp. 8323-8325.
- Темкин О. Н. "Золотой век" гомогенно-катализитической химии алкинов: димеризация и олигомеризация алкинов // Кинетика и катализ, 2019, Том 60, № 6, С. 683-724.

11. Lin Min, Chen Qing-zhen, Zhu Yu, Chen Xin-liang, Cai Ji-jun, Pan, Ying-ming, Zhan Zhuangping. Copper(II)-Catalyzed Synthesis of Pirimidines from Propargylic Alcohols and Amidine: A Propargylation-Cyclization-Oxidation Tandem Reaction // *Synlett*, 2011, №8, pp. 1179.
12. Ziyadullaev Odiljon, Otamukhamedova Guzal, Ikramov Abduvakhab, Abdurakhmanova Saida, Boytemirov Otabek. Synthesis Of Aromatic Acetylene Alcohols Using Complex Catalytic Systems // *Chemistry and Chemical Engineering*, 2021, №2, pp. 58-72.
13. Ziyadullayev O.E., Saliyeva M.K., Talipov R.F., Otamuxamedva G.Q. Ayrim geteroatomli aldegidlarni ProPhenol/Me<sub>2</sub>Zn/TGF katalitik sistemasida alkinlash jarayoni "Qishloq va suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni qo'llash samaradorligi" // Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to`plami. 773-843 b.
14. Аблакулов Лочинбек Кучкорович, Икрамов Абдувахаб, Зиядуллаев Одилжон Эгамбердиевич, Отакўзиев Дилшод Дўлтгахўжа ўғли. Магний органик бирикмалар асосида ароматик ацетилен спиртлари синтези // FarDU. Ilmiy habarlari jurnali 2021, №6.